

# TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQARORLIK REYTINGINING YARATILISHI

Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023 yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalar



Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini shakllantirish bo'yicha ochiq-oshkora **23 ta mezonlar** asosida belgilash elektron platforma orqali amalga oshiriladi.



Mezonlar asosida shakllantiriladigan 100 ballik baholash tizimidan kelib chiqqan holda **yuqori**, **o'rta**, **qoniqarli** va **quyi** reyting ko'rsatkichlari belgilanadi.



Endilikda tadbirkorlik subyektlari uchun qo'llab-quvvatlash choralari ya'ni **subsidiya**, **imtiyoz** va **boshqa yengillik hamda preferensiyalar** **reyting asosida** belgilanadi.



[Barqarorlik reytingi mezonlari bo'yicha TUSHUNTIRISH](#)

- [1. Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-39-Farmoni.](#)
- [2. Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizom. \(VMQ-55\)](#)
- [3. Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida \(PQ-193\)](#)
- [4. To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida \(PF-71-son\)](#)
- [5. Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida \(PQ-286\)](#)
- [6. Sanoat sohasida milliy brend egalari hamda nufuzli xalqaro brendlar hamkorlarini Savdoga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida \(VMQ-748\)](#)

## TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQARORLIK REYTINGI KO'RSATKICHLARI

### Yuqori

AAA

96-100 ballar

AA

91-95 ballar

A

86-90 ballar

### O'rta

BBB

76-85 ballar

BB

66-75 ballar

B

56-65 ballar

### Qoniqarli

CCC

51-55 ballar

CC

36-50 ballar

C

26-35 ballar

### Quyi

D

25 ballgacha

AAA

“AAA” (96-100) reytingga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga:

faoliyatida soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi (*jinoiy ishlar doirasida o'tkaziladigan tekshiruvlar mustasno*), shuningdek ushbu subyektlarga qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash (*qaytarish*) **bir kun muddatda tekshiruvlarsiz** amalga oshiriladi.

AA

“AA” va undan yuqori reytingga ega bo'lganlarda:

**4 va 5-toifadagi** tumanlarda faoliyat yuritayotgan “AA” va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotilgan davlat aktivlari va qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari bo'yicha kamida **15 foiz** miqdoridagi dastlabki to'lov bir yo'la amalga oshirilganda qolgan summaga Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida yillik foizlar hisoblanmaydi hamda bo'lib-bo'lib to'lash **muddati 5 yilgacha** uzaytiriladi.

A

“A” va undan yuqori reytingga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga:

barcha soliq turlari bo'yicha (qo'shilgan qiymat solig'i bundan mustasno) mavjud ortiqcha to'lov summasini qaytarish **uch kun muddatda** amalga oshiriladi.

BBB

“BBB” va undan yuqori reytingga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga:

tovarlarni import qilishda va tovarlarni (*xizmatlarni*) realizatsiya qilishda to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini **o'zaro hisobga olish** imkoniyatini beruvchi tartib tatbiq etiladi.

B

“B” va undan yuqori reytingga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga:

Subsidiyalar, **soliq va bojxona imtiyozlari** hamda **preferensiyalar** (*qo'llab-quvvatlash choralari*) ularning **reyting darajasi**dan kelib chiqqan holda tatbiq etiladi. (PQ-193)



Mazkur rag'batlantirish choralari **davlat korxonalarini** hamda **ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslarga tatbiq etilmaydi.**

# Reyting mezonlari davriyligi

T/R	Ko'rsatkich nomi	Davriyligi	Davrni yangilash sanasi	Ball
<b>Umumiy ko'rsatkichlar</b>				<b>Jami: 100 ball</b>
1	<a href="#">Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish davomiyligi</a>	Yillik	Har kuni	10 ball
2	<a href="#">EBITA bo'yicha rentabellik darajasi</a>	Yillik	Har chorakda, keyingi oyning 21 sanasida	10 ball
3	<a href="#">Yer uchastkalari va (yoki) ko'chmas mulk obyektlari mavjudligi</a>	Oylik	Har kuni	10 ball
4	<a href="#">Bir nafar xodimga to'g'ri keladigan ish haqi jamg'armasi</a>	Oylik	Har oyning 16 sanasida	10 ball
5	<a href="#">Soliq hisobotlarining belgilangan muddatlarda taqdim etilishi</a>	Oylik	Har oyning 16 sanasida	10 ball
6	<a href="#">Hisoblangan soliqlarning belgilangan muddatlarda to'lanishi</a>	Oylik	Har oyning 16 sanasida	10 ball
7	<a href="#">Hisoblangan soliqlarning to'lov topshiriqnomasi orqali to'langanligi</a>	Oylik	Har oyning 1 sanasida	10 ball
8	<a href="#">Elektron hisobvaraƒ-fakturalarni qonunchilikda belgilangan muddatlarda rasmiylashtirish holati</a>	Oylik	Har oyning 11 sanasida	10 ball
9	<a href="#">Elektron hisobvaraƒ-fakturalar orqali xarid qilingan tovarlar realizatsiyasi</a>	Yillik	Har oyning 21 sanasida	10 ball
10	<a href="#">Soliq organlari tekshiruvdan oldingi tahlil natijasida aniqlagan kamchiliklarning bartaraf etilish holati</a>	Кунлик	Har kunlik	10 ball
<b>Ballarni kamaytiruvchi ko'rsatkichlar</b>				<b>Jami: -55 ball</b>
11	<a href="#">Joylashgan joy (pochta manzili) o'zgarishi</a>	Yillik	Har kuni	-5 ball
12	<a href="#">Tadbirkorlik subyekti rahbarining qo'nimsizligi</a>	Yillik	Har kuni	-5 ball
13	<a href="#">Tadbirkorlik subyekti ta'sischisi yoki rahbarining ishonchsizligi</a>	Yillik	Har kuni	-5 ball
14	<a href="#">Taqdim etilgan soliq hisobotlariga tuzatishlar soliq to'lovchining o'zi tomonidan mustaqil kiritilishi</a>	Oylik	Har oyning 1 sanasida	-5 ball
15	<a href="#">Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisining maxsus guvohnomasi holati</a>	Kunlik	Har kuni	-10 ball
16	<a href="#">Soliq qarzini mol-mulk hisobidan undirish</a>	Yillik	Har kuni	-5 ball
17	<a href="#">Soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik choralarining qo'llanilganligi</a>	Yillik	Kunlik (ohirgi 12 oy davomida)	-5 ball
18	<a href="#">Mahsulotlarning (tovarlar va xizmatlarning) identifikatsiya kodlaridan noto'g'ri foydalanilganligi</a>	Oylik	har oyning 1 sanasida	-5 ball
19	<a href="#">Tadbirkorlik subyektlarining kreditorlik qarzdorligi mavjudligi</a>	Yillik	Har kuni	-10 ball
<b>Qo'shimcha ball beruvchi ko'rsatkichlar</b>				<b>Jami: + 35 ball</b>
20	<a href="#">Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar bandligini ta'minlash</a>	Oylik	Har oyning 16 sanasida	10 ball
21	<a href="#">Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan ortiq ish haqi to'lanayotgan xodimlar sonining ko'payishi</a>	Oylik	Har oyning 16 sanasida	15 ball
22	<a href="#">Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisoblangan soliq summasining tegishli soha bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga nisbati</a>	Oylik	Har oyning 21 sanasida	10 ball
23	<a href="#">Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha hisoblangan soliq summasining tegishli soha bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga nisbati</a>	Oylik	Har oyning 21 sanasida	10 ball

## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 1 - mezon

### Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish davomiyligi (yashovchanlik davri)

Ballarni  
hisoblash  
shartlari

Davlat **ro'yxatidan o'tgan sanasi** bo'yicha:

Faoliyat ko'rsatgan har bir yili uchun **2 ball**dan;  
5 yil va undan ortiq yil uchun **10 ball** beriladi.

Bunda, tadbirkorlik subyektining **harakatsiz holatga o'tkazilgan davri hisobga olinmaydi.**



Uzoq muddat muntazam **faoliyat yuritish.**

Maksimal ball

**10 ball**

Ko'rsatkichlarni  
yangilanish davri

Har kuni

# Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

## 2 - mezon

## EBITDA bo'yicha rentabellik darajasi

### Ballarni hisoblash shartlari

#### Mezonni hisoblash formulasi

- A) Jami daromad summasi (1-ilovaning 010-satri);
- B) Jami xarajat summasi (2-ilovaning 3-ustun, 010-satri);
- C) Foiz to'lovlari (2-ilovaning 3-ustun, 0113-satri);
- D) Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi (2-ilovaning 3-ustun, 0106-satri);
- F) Sof tushum (QQSning 6-ilovasi 010-satridan Aksiz solig'i chegirilgan holat);

#### EBITDA bo'yicha rentabellik darajasi

$$((A-B+C+D)/F*100).$$

**EBITDA rentabellik darajasi** subyektning sof foydasiga, foiz to'lovlari, amortizatsiya va foyda solig'i summasi qo'shilib, sof tushumga bo'lish va 100 ga ko'paytirish orqali **aniqlanadi**.

**EBITDA** rentabellik darajasi subyekt faoliyat ko'rsatayotgan soha korxonalarining **o'rtacha ko'rsatkichidan** kelib chiqib ball beriladi.

O'rtachadan past bo'lsa — **ball berilmaydi**.

Bunda, tegishli hududdagi iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha tadbirkorlik subyektini yagona bo'lgan hollarda mazkur mezonni hisoblashda hududni o'rtacha ko'rsatkichi bilan **solishtiriladi**.



**Sof foydani real oshirish orqali subyektning rentabellik darajasini ko'tarish.**

Maksimal ball

**10 ball**

**Ko'rsatkichlarni yangilanish davri**

Har chorakda, keyingi oyning 21 sanasidan boshlab joriy oydagi majburiyatlar bo'yicha, yillik soliq hisobotlar bo'yicha keyingi yil **birinchi mart** kuni (qayta hisobotlar bo'yicha har kuni) yangilanadi.

## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 3 - mezon

### Yer uchastkalari yoki ko'chmas mulk obyektlari mavjudligi

Ballarni  
hisoblash  
shartlari



Subyekt egaligida **noturar ko'chmas mulk** obyektlari mavjud bo'lsa — **10 ball**, ijara asosida foydalanilayotgan bo'lsa — **7 ball** beriladi.

Bunda, **oilaviy korxon**a ishtirokchi va **advokatlik byurosini** ta'sis etgan advokatga tegishli turar joylar ham hisobga olinadi.

Agar **noturar** ko'chmas mulk obyektlari **mavjud bo'lmasa** (yer uchastkasi mavjud bo'lgan taqdirda ham), shuningdek, tadbirkorlik subyektini u ko'rsatilgan **manzilda** faoliyat yuritmayotgan bo'lsa — **5 ball chegiriladi**.

**!** **Noturar** obyektlarni mulk yoki ijara huquqi asosida hisobga qo'yish, shuningdek, egaligidagi yer va mol-mulk obyektlari bo'yicha **solix hisobotlarini taqdim etgan bo'lsa ball** beriladi.

**5-mezon** ilovasida taqdim etilmagan solix hisobotlarini **yuklab olish** mumkin.

**Turar** obyektlarni mulk yoki ijara huquqi asosida hisobga qo'yilganda **5 ball chegiriladi**.

Maksimal ball **10 ball**

Ko'rsatkichlarni  
yangilanish davri

Har kuni

# Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

## 4 - mezon

### Bir nafar xodimga to'g'ri keladigan ish haqi jamg'armasi

#### Ballarni hisoblash shartlari



Joriy yilda har bir xodimning ishlagan davridan kelib chiqib, bir nafar xodimga hisoblangan o'rtacha ish haqi summasi mehnatga haq to'lash eng kam miqdoridan kelib chiqib ball beriladi;  
bir nafar xodimga hisoblangan o'rtacha ish haqi summasi (01.10.2024 dan MHTEKM 1 155 000 so'm) dan **kam bo'lsa — 5 ball** chegiriladi;

ishchi xodimlar soni **o'tgan oyga nisbatan 10 foizdan ortiq** kamaygan hollarda **ball berilmaydi**.



Xodimlarni **legallashtirish** va **ish haqi** jamg'armasini oshirib borish.

Mazkur mezonda oxirgi hisobot davrida (*o'tgan oyda*) ishlagan xodimlarning yil boshidan hisoblangan ish haqi summasi o'rtachasi olinib, bir oylik ish haqi jamg'armasi aniqlanadi hamda xodim soniga bo'lish orqali **bir nafar xodimga** hisoblangan ish haqi summasi ma'lum bo'ladi.

Bunda, bir nafar xodimga to'g'ri keladigan ish haqi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori (**MHTEKM**)dan ortiq bo'lishini ta'minlash.

Maksimal ball

**10 ball**

Ko'rsatkichlarni yangilanish davri

Har oyning 16 sanasidan boshlab **o'tgan oy** hisoboti bo'yicha (*qayta hisobotlar bo'yicha har kuni*) yangilanadi.



## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 5 - mezon

### Solih hisobotlarining belgilangan muddatlarda taqdim etilishi

#### Ballarni hisoblash shartlari

Barcha solih turlari bo'yicha solih hisobotlari belgilangan muddatlarda taqdim etilgan bo'lsa — **10 ball** beriladi.

hisobot **kechiktirib taqdim etilganda** yoki **taqdim etilmaganda** — **ball berilmaydi**.

Bunda, da'vo muddati (3 yil) davrida taqdim etilishi lozim bo'lgan hisobotlar inobatga olinadi.



Solih majburiyatlari bo'yicha barcha **solih hisobotlarini** o'z vaqtida taqdim etib borish.  
Taqdim etilmagan solih hisobotlarini [Иловани юклаш](#) ilovani yuklash orqali ko'rish mumkin.  
Shuningdek, "Solih" mobil ilovasidagi "Solih biznes" xizmati orqali aniqlash mumkin.

Maksimal ball **10 ball**

Ko'rsatkichlarni yangilanish davri

Har oyning 16 sanasidan boshlab o'tgan oy hisoboti **topshirish** majburiyatlar (qayta hisobotlar bo'yicha har kuni) bo'yicha yangilanadi.

## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 6 - mezon

### Hisoblangan soliqlarning belgilangan muddatlarda to'lanishi

#### Ballarni hisoblash shartlari



Hisoblangan soliqlarning belgilangan muddatlarda to'langan bo'lsa — **10 ball** beriladi, **kechiktirib to'langanda** yoki **to'lanmaganda** — **ball berilmaydi**.

Bunda har oyda hisoblangan va to'lov muddati kelgan soliq summasi inobatga olinadi.

Soliq qarzi **(penya bilan birga)**, to'lanishi lozim bo'lgan joriy to'lovlar **(foyda, mulk, suv solig'i)** hamda kechiktirib to'langan soliq summasi **mavjud bo'lganda ball berilmaydi**.



To'lanishi lozim bo'lgan soliqlarni **belgilangan muddatda to'lash**.

Maksimal ball

**10 ball**

Ko'rsatkichlarni yangilanish davri

Har oyning 16 sanasidan boshlab **joriy oy** ma'lumotlari bo'yicha yangilanadi.

## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 7 - mezon

### Hisoblangan soliqlarning inkasso orqali to'langanligi

#### Ballarni hisoblash shartlari



Hisoblangan soliqlar topshiriqnomasi orqali to'langan bo'lsa — **10 ball** beriladi,  
**Solih qarzi** mavjud bo'lsa **ball berilmaydi**.

Solih organining **inkasso topshiriqnomasi** orqali undirilgan bo'lsa — **5 ball chegiriladi**.



Hisoblangan solih summalarini belgilangan muddatgacha **to'lov topshiriqnomalari** orqali to'lovlarni amalga oshirish

Maksimal ball **10 ball**

Ko'rsatkichlarni yangilanish davri

Har oyning 1 sanasidan boshlab **joriy oy** ma'lumotlari bo'yicha yangilanadi.

## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 8 - mezon

### EHF larni qonunchilikda belgilangan muddatlarda rasmiylashtirish holati

#### Ballarni hisoblash shartlari

(1) Jami EHFlarga nisbatan tovarlar jo'natilgan (xizmatlar ko'rsatilgan) sanada rasmiylashtirilgan **EHFlar ulushi** va (2) to'lov terminali orqali hisob-kitoblarga nisbatan rasmiylashtirilmagan **ONKT cheklari** ulushi kelib chiqib **ball beriladi**.

(1) EHF va cheklar rasmiylashtirilmaganda va (2) "solih hamkor" tizimi orqali soliqqa oid huquqbuzarlik fakti bo'yicha **murojaat** kelib tushgan taqdirda — **ball berilmaydi**.

Naqd va terminal orqali amalga oshirilgan savdo tushumi bilan onlayn nazorat kassa mashinasiga kirim qilingan savdo tushumida **tafovut** aniqlanganda shu oy uchun — **5 ball chegiriladi**.



Tovar (xizmat) realizatsiyasi bo'yicha EHFlarni qonunchilikda belgilangan muddatlarda va savdo tushumlari bo'yicha **onlayn nazorat kassa texnikasi cheklarini** to'liq rasmiylashtirib borish hamda hisobvaraqa-faktura tovarlar orqali jo'natilgan (*topshirilgan*) yoki xizmatlar ko'rsatilgan **kalendar sanada** rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim, ya'ni faktura sanasi bilan imzolash (sysdate) **sanasi bir xil bo'lishi muhim**.

Maksimal ball

**10 ball**

Ko'rsatkichlarni yangilanish davri

Har oyning 11 sanasidan boshlab **o'tgan hisobot davri** uchun yozilgan EHF, eksport hajmi, ONKM, marketpleys cheklari ma'lumotlari bo'yicha yangilanadi.

## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 9 - mezon

### EHF orqali xarid qilingan tovarlar realizatsiyasi

#### Ballarni hisoblash shartlari

Yil boshiga TMZ qoldig'i + Yil davomida EHF orqali xarid qilingan (shu jumladan, import) tovarlar yoki xomashyo summasiga nisbatan realizatsiya (shu jumladan, EHF orqali+eksport summa+ONKM orqali+marketpleys orqali) summasi:

70 foizdan ko'p bo'lganda — **10 ball.**

50 foizdan 70 foizgacha bo'lganda — **5 ball beriladi.**

Yil davomida 70 foizdan ortiq xarid qilingan tovarlar yoki xomashyo qoldiqda qolganda — **5 ball chegiriladi.**

Yil davomida xarid qilingan tovarlarni kamida **50 foizdan ortiq qismini realizatsiya** qilib borish.

Maksimal ball

**10 ball**

Ko'rsatkichlarni yangilanish davri

Har oyning 21 sanasidan boshlab **o'tgan hisobot davridagi** ma'lumotlar bo'yicha yangilanadi.

## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 10 - mezon

### Avtokameral tahlili va kameral soliq tekshiruvda aniqlagan kamchiliklarni bartaraf etilishi

#### Ballarni hisoblash shartlari

Solih organlari **tekshiruvdan oldingi tahlil** va kameral soliq tekshiruvi natijasida kamchilik aniqlanmagan yoki asoslantirilgan yoxud aniqlagan kamchiliklar bartaraf etilgan bo'lsa — **10 ball** beriladi.

kamchiliklar bartaraf etilmagan yoki keltirilgan kamchiliklarning mavjud emasligi asoslantirilmagan bo'lsa — **5 ball chegiriladi.**



**!** Avtokameral avtomatlashtirilgan axborot tizimi va kameral soliq tekshiruvi orqali **aniqlangan kamchiliklarni** o'z vaqtida **bartaraf etish** yoki **asoslantirish.**

Maksimal ball

**10 ball**

Ko'rsatkichlarni yangilanish davri

Har kuni aniqlangan kamchiliklarning **bartaraf etilishi** yoki **asoslantirilishidan** kelib chiqib yangilanadi.

## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 11 - mezon

### Joylashgan joy (pochta manzili) o'zgarishi

Ballarni  
hisoblash  
shartlari

Tadbirkorlik subyekti **joylashgan joyi** (pochta manzili) oxirgi 12 oy davomida 3 va undan ko'p marotaba o'zgartirilgan bo'lsa, ballar yig'indisidan **5 ball chegiriladi**.



Zarurat bo'lmaganda ro'yxatdan o'tkazilgan **yuridik manzilni** o'zgartirmaslik.

Maksimal ball

**-5 ball**

Ko'rsatkichlarni  
yangilanish davri

Har kuni ohirgi **12 oylik ma'lumotlar** bo'yicha yangilanadi.

## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 12 - mezon

### Rahbarning qo'nimsizligi

Ballarni  
hisoblash  
shartlari



Oxirgi 12 oy davomida tadbirkorlik subyekti rahbari 3 va undan ko'p marotaba **o'zgartirilgan** bo'lsa, ballar yig'indisidan **5 ball chegiriladi.**



Zarurat bo'lmaganda korxonada **rahbarini o'zgartirmaslik.**

Maksimal ball **-5 ball**

Ko'rsatkichlarni  
yangilanish davri

Har kuni ohirgi **12 oylik ma'lumotlar** bo'yicha yangilanadi.



## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 13 - mezon

### Ta'sischisi yoki rahbarning ishonchsizligi

Ballarni  
hisoblash  
shartlari



Subyektning ta'sischisi yoki rahbari oxirgi 36 oy davomida **jinoiy javobgarlikka tortilgan** yoki bankrotlik asosida **tugatilgan korxonaga rahbarlik qilgan** bo'lsa, ballar yig'indisidan **5 ball chegiriladi**.

Ta'sischi yoki rahbar faoliyati davomida korxonani **bankrotlik** holatiga olib kelmaslik hamda qo'pol **kamchiliklarga** yo'l qo'ymaslik.

Maksimal ball

**-5 ball**

Ko'rsatkichlarni  
yangilanish davri

Har kuni (oxirgi **36 oylik ma'lumotlar** bo'yicha) yangilanadi.

## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 14 - mezon

### Solih hisobotlariga tuzatishlar kiritilishi

Avval taqdim etilgan solih hisobotlariga:

Ballarni  
hisoblash  
shartlari

bir marotaba o'zgartirish kiritilgan bo'lsa — **1 ball**;  
ikki marotaba o'zgartirish kiritilgan bo'lsa — **2 ball**;  
uch marotaba o'zgartirish kiritilgan bo'lsa — **3 ball**;  
to'rt marotaba o'zgartirish kiritilgan bo'lsa — **4 ball**;  
**besh va undan ortiq o'zgartirishlar kiritilgan bo'lsa — 5 ball chegiriladi.**

Bunda, bir solih davri uchun o'sib boruvchi yakuni bilan topshirilgan aniqlashtirilgan solih hisobotlari **bir marotaba** taqdim etilgan deb hisoblanadi.



Solih majburiyati bo'yicha taqdim etilishi lozim bo'lgan **hisobot ko'rsatkichlarini** o'z vaqtida kamchiliklarga yo'l qo'ymasdan to'g'ri taqdim etib borish.

Maksimal ball

**-5 ball**

Ko'rsatkichlarni  
yangilanish davri

Har kuni joriy oyning **1 sanasidan** boshlab har kuni yangilanadi.

## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 15 - mezon

### QQS to'lovchisining maxsus guvohnomasi holati

Ballarni  
hisoblash  
shartlari



QQS to'lovchisining **maxsus guvohnomasi** bekor qilingan yoki to'xtatilgan taqdirda, ballar yig'indisidan **10 ball chegiriladi**.

QQS guvohnomasi doim **faol** holatda bo'lishini ta'minlash.

Maksimal ball

**-10 ball**

Ko'rsatkichlarni  
yangilanish davri

Har kuni **guvohnoma holati** bo'yicha yangilanadi.

## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 16 - mezon

### Solih qarzini mol-mulk hisobidan undirish

Ballarni  
hisoblash  
shartlari

Subyektning solih qarzini undirish uning mol-mulkiga qaratilgan bo'lsa, ballar yig'indisidan **5 ball chegiriladi.**

Bunda solih qarzi **to'liq to'langandan** keyin kamaytirilgan ballar **olib tashlanadi.**



Hisoblangan solihlarni **belgilangan muddatida** to'lab borish.

Maksimal ball

**-5 ball**

Ko'rsatkichlarni  
yangilanish davri

Har kuni **solih qarzini** undirilishi bo'yicha yangilanadi.

## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 17 - mezon

### Solih va bojxonaga oid ma'muriy, jinoiy va boshqa javobgarlik choralari qo'llanilganligi

Ballarni  
hisoblash  
shartlari

Subyektning mansabdor shaxslariga nisbatan oxirgi 12 oyda **solih** va **bojxonaga** oid huquqbuzarliklar uchun:

ma'muriy javobgarlik qo'llanilgan bo'lsa — **2 ball**;  
jinoiy javobgarlik qo'llanilgan bo'lsa — **5 ball chegiriladi**.

Bunda, javobgarlik belgilangan tartibda **bekor qilingan** yoki jinoyat ishi **tugatilgan** yoki oqlov hukmi chiqarilganda **chegirilgan** ballar olib tashlanadi.



Subyektning **mansabdor shaxslari** faoliyati davomida **majburiyatlarini** o'z vaqtida bajarish.

Maksimal ball

**-5 ball**

Ko'rsatkichlarni  
yangilanish davri

Har kuni ohirgi **12 oylik ma'lumotlar** bo'yicha yangilanadi.

## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 18 - mezon

### MXIK kodlaridan noto'g'ri foydalanilganligi

Ballarni hisoblash shartlari

Bir oyda kamida 2 marotaba **EHF** yoki **NKT** cheklarida olingan tovarlar (xizmatlar)ga yoxud subyekt faoliyatiga xos bo'lmagan **MXIK**larni **aks ettirilganligi** aniqlanganda, ballar yig'indisidan **5 ball chegiriladi**.



Tovar (xizmat) realizatsiyasi bo'yicha MXIKlarni **solih bazasida mavjud kodlar** bo'yicha **aks ettirish**.

Maksimal ball

**-5 ball**

Ko'rsatkichlarni yangilanish davri

Har kuni joriy oyning **1 sanasidan** boshlab har kuni yangilanadi.

## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 19 - mezon

### Subyektning kreditorlik qarzdorligi mavjudligi

Ballarni  
hisoblash  
shartlari



Oxirgi 12 oyda kreditorlar tomonidan 2 va undan ortiq marta **sudga da'vo** arizalari kiritilgan va qanoatlantirilgan bo'lsa, ballar yig'indisidan **10 ball chegiriladi**.



**Kreditor qarzdorlikka** yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish.

Maksimal ball

**-10 ball**

Ko'rsatkichlarni  
yangilanish davri

Har kuni ohirgi **12 oylik ma'lumotlar** bo'yicha yangilanadi.

## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 20 - mezon

### Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar bandligini ta'minlash

Ballarni  
hisoblash  
shartlari

**Subyekt xodimlarining** umumiy sonida “Yagona ijtimoiy reyestr”, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan, nogironligi bo'lgan va MHTEKMdan ortiq ish haqi hisoblangan shaxslar ulushi:

20 foizdan yuqori bo'lganda — **10 ball**;  
10 foizdan 20 foizgacha bo'lganda — **5 ball** beriladi.



“Yagona ijtimoiy reyestr”, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan va nogironligi bo'lgan **shaxslar bandligini ta'minlab**, MHTEKMdan ortiq ish haqi hisoblash va to'lash.

Maksimal ball

**10 ball**

Ko'rsatkichlarni  
yangilanish davri

Har oyning 16 sanasidan boshlab **joriy oydagi majburiyatlar**  
bo'yicha yangilanadi.



## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 21 - mezon

### Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan ortiq ish haqi to'lanayotgan xodimlar sonining ko'payishi

Ballarni hisoblash shartlari



MHTEKMdan ortiq ish haqi olgan xodimlarning **yillik o'rtacha sonini** o'tgan yilning mos davriga (*12 oy oldingi hisobot oyi*) nisbatan oshirib borish:

- 50 foiz va undan yuqori bo'lsa — **15 ball**,
- 40 — 50 foizgacha bo'lsa — **10 ball**,
- 30 — 40 foizgacha bo'lsa — **8 ball**,
- 20 — 30 foizgacha bo'lsa — **6 ball**,
- 10 — 20 foizgacha bo'lsa — **4 ball**,
- 1 — 10 foizgacha bo'lsa — **2 ball** beriladi.

Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari uchun ushbu ko'rsatkich faoliyat davrining ikkinchi oyidan boshlab o'tgan oyga nisbatan **solishtiriladi**.



**Xodimlar sonini oshirish** va ularga MHTEKMdan ortiq ish haqi hisoblab to'lash.

Mazkur mezonda oxirgi 12 oylik hisobot davrida MHTEKMdan ortiq ish haqi olgan xodimlar soni har bir oy bo'yicha yig'ib chiqiladi va oylar soniga bo'lish orqali yillik **o'rtacha soni** aniqlanadi.

Maksimal ball

**15 ball**

**Ko'rsatkichlarni yangilanish davri**

Har oyning 16 sanasidan boshlab **joriy oydagi majburiyatlar** bo'yicha yangilanadi.

## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 22 - mezon

### QQS bo'yicha hisoblangan soliq summasining tegishli soha bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga nisbati

#### Ballarni hisoblash shartlari



Subyekt tomonidan:

- 1) bir oyda hisoblangan va to'langan **QQS summasi** u faoliyat yuritayotgan soha bo'yicha tegishli hududda o'rtacha hisoblangan QQS summasidan **1,1 barobar** yuqori bo'lsa;
- 2) eksport qilishdan olingan daromadlar jami daromadning **kamida 50 foizini** tashkil etsa — 10 ball beriladi.

Bunda, har oyda (soha bo'yicha o'rtacha hisoblangan QQS summasi+BHMning **10 barovaridan** (3 750 000 so'm)= yig'indisidan kam bo'lmasligi lozim.

**!** Eksport ulushini oshirish yoki realizatsiya hajmini soliq hisobotlarida to'liq aks ettirish orqali **QQS summasini oshirib** borish.

Maksimal ball

**10 ball**

Ko'rsatkichlarni yangilanish davri

Har oyning 21 sanasidan boshlab **joriy oydagi majburiyatlar** bo'yicha yangilanadi.

## Barqarorlik reytingi mezonlari ishlash tartibi

### 23 - mezon

### AOS bo'yicha hisoblangan soliq summasining tegishli soha bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga nisbati

#### Ballarni hisoblash shartlari



Subyekti tomonidan:

- 1) bir oyda to'langan **AOS summasi** u faoliyat yuritayotgan soha bo'yicha tegishli hududda o'rtacha hisoblangan **AOS summasidan 1,1 barobar** yuqori bo'lsa;
- 2) eksport qilishdan olingan daromadlar jami daromadning **kamida 50 foizini** tashkil etsa — **10 ball** beriladi.

Bunda, har oyda (soha bo'yicha o'rtacha hisoblangan AOS summasi+BHMning **10 barovaridan** (3 750 000 so'm) = yig'indisidan kam bo'lmasligi lozim.

**!** Eksport ulushini oshirish yoki realizatsiya hajmini soliq hisobotlarida to'liq aks ettirish orqali **AOS summasini oshirib** borish.

Maksimal ball

**10 ball**

**Ko'rsatkichlarni yangilanish davri**

Har oyning 16 sanasidan boshlab **joriy oydagi majburiyatlar** bo'yicha yangilanadi.